INTERVYU DISKURS VA NUTQ MADANIYATI

Dilfuza Shonazarova Jahongirovna, *O'zMu tadqiqotchisi*

ANNOTASIYA: mazkur maqola intervyu diskurslarni nutq madaniyati haqida. Nutq madaniyatida qanday vazifalar zururligi,bu borada tilshunos olimlar nimalarga alohida ahamiyat qaratganligi,nutqning estetik vazifasi hamda kommunikativ sifati,nutqning to'g'ri bo'lishida qanday meyorlarga e'tibor berilish zarurligi hamda nutq madaniyatida graduonimiya, gipe-giponomiya, partonomiyaning ham o'rni borasida so'z yuritiladi.

KALIT SO’ZLAR: nutqda denotativ hamda konnotativ ma'nolar, graduonimiya, gipe-giponomiya, partonomiya

ABSTRACT: This article is about the discourse culture of interview discourses. What tasks are necessary in speech culture, what linguists pay particular attention to in this regard, the aesthetic function and communicative quality of speech, what criteria should be paid attention to in order to be correct in speech, and the role of graduonomy, hyper-hyponomy, and partonomy in speech culture are discussed.

KEY WORDS: denotative and connotative meanings in speech, gradunomy, hyper-hyponomy, partonomy

Intervyu diskurslarni nutq madaniyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning bir necha sabablari bor. Intervyu oluvchi, birinchi galda, to'kis bilimga, intervyu olinayotgan soha va uning vakili mansub bo'lgan jarayondan to'liq boxabar bo'lishi talab etiladi. Agar intervyu oluvchi va beruvchining bu boradagi bilim va ma'lumotlari mutonosib bo'lsa, yuzaga keladigan interviyu matn jonli chiqadi va tinglovchiga aniq yetib boradi. Ayni chog'da, intervyu matnlari nutq madaniyatiga muvofiq kelishi uning jozibasi hamda ta'sirchanligi kuchaytiradi. Tilshunoslikda “nutq madaniyati” termini, asosan, ikki xil ma'noda qo'llanadi, ya'ni: 1) tildan bemalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami, deb tushunish; 2) tilshunoslikning tildan



maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda kommunikativ maqsadlarda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatlarni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o'rganish va belgilash bilan shug'ullanuvchi bo'limi tarzida anglash. Biz uchun nutq madaniyatining tilga olingan xususiyatlari yuzasidan fikr yuritish emas, uning uzviy tomonlaridan intervyu diskurlarda qay tariqa istifoda etish zarurligini o'rganish muhimdir. Birinchi galda, nutq madaniyati, madaniy nutq, adabiy til, so'z, gap, jumla, mikromatn, makromatn, takt, urg'u, pauza, uslub, nutqning ravonligi, nutqning tozaligi, nutqning aniqligi, individual nutq, ommaviy nutq, notiqlik va boshqa atamalar nutq madaniyati sohasining uzvlari sanalar ekan, ular intervyu diskurs jarayonida mutlaq qo'llanadigan vositalarga aylanadi.

Birinchi navbatda shuni ta'kidlash lozimki, “nutq” terminini “til” termini bilan aralashtirmaslik darkor. “Nutq” so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina tilga bog'liq sanalmasdan, shu bilan birga, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko'zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo'lgan muddaoning to'liq borib etishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirishda nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi. Bu talabalar grammatik jihatdan nutqning to'g'ri bo'lishini, so'zlar ko'zlangan ma'noni aniq aks ettirishini, tushunarli muloyim, yorqin va ta'sirchan bo'lishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi. Nutq haqidagi ta'limot – ortologiya ana shu sifatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. “Til” esa ma'lum bir millatning etaloni bo'lib, bu millatni boshqa millatlardan ajratib turadigan shakl hisoblanadi. Biror millatning tavsifi uning tili bilan aniqlanadi. Shuning uchun o'zbek tili, qozoq tili, ingliz tili, fransuz tili, hitoy tili, tay tili deb, o'sha millatni boshqa millatlardan ajaratib olinadi. Nutq induvidual hodisa bo'lsa, til umumiy hodisa sanaladi. Nutq muayyan bir kishiga tegishli bo'lsa, til umumiy millatga daxldor jarayon hisoblanadi. Har qanday til adabiy til va umumxalq tiliga ajraladi. Nutq esa ana shu til tafovutlarini ma'lum bir o'zanga solib, kommunikativ jarayonda ulardan



foydalanadigan hodisadir. Shuning uchun “madaniyat” atamasi “nutq” so'zi bilan birikma hosil qilib, muayyan maqsadni amalga oshirishda ishlatiladi. Demakki, “nutq madaniyati” bilan “til madaniyati” terminlarini aralashtirish yaramaydi. Til madaniyati keng tushuncha, nutq madaniyati esa unga nisbatan tor tushuncha hisoblanadi. Nutq madaniyati tilni tushunish didining rivoji, undagi me'yor, marom va mezonni anglash, ravshan va ifodali nutq usullarini egallash va uni o'zining og'zaki va yozma nutqida amalda qo'llay olishni hamda o'zgalarning nutqini chuqur va aniq ajrata olishni bilishi lozim. Yuqorida so'zlar nutqda denotativ hamda konnotativ ma'nolarda ishlatilishi masalasiga qisman to'xtab o'tildi. Ko'rsatib o'tilganidek, denotativ ma'no so'zlarni nutqda o'z ma'nosida ishlatish hisoblanadi. Konnotativ ma'no nutqni baholash mezonii sanaladi. Shuning uchun bu bir-birini to'ldiruvchi bu lingvistik hodisalar nutq madaniyatida muhim ahamiyat kasb etib, intervyu diskurslarni ham muvaffaqiyatli chiqishida alohida roli o'ynaydi.

Konnotativ ma'no so'zning baholash ma'nosi bo'lar ekan, unda so'z ekspressivlik, emosionallik, ta'sirchanlik mezonida nutqda namoyon bo'ladi. Bu esa til hamda nutqning naqadar boy va ta'sirchan ekanligini tasdiqlaydi. “Nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki boshqa tilshunosliklarda ham lisoniy belgi semantik strukturasining ikki yirik uzvdan, ya'ni denotativ va konnotativ uzvlardan tarkib topishi e'tirof etish an'anaga kirgan. Albatta, leksik ma'noning denotativ uzvi muayyan tushunchani ifoda etadi, konnotativ uzvi esa, so'zlovchining yoki til sohibining unga munosabatini aks ettiradi. Mutaxassislar konnotasiyani nutq pragmatikasi bilan bog'liq ekanligini, konnotasiya til sohibining baholash nigohining mahsuli ekanligini, konnotasiyani antropometrik asosga egaligini qayd etadilar. Konnotasiyaning turlari ko'p: ijtimoiy konnotasiya, siyosiy konnotasiya, ijtimoiy-siyosiy konnotasiya, sosial konnotasiya, badiiy konnotasiya, gender konnotasiya, etnokonnotasiya v.h. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, konnotasiyaning kattagina qismi sub'ektiv xarakterga ega bo'ladi. Lekin ularning barchasi ijtimoiy qimmatga molik bo'ladi. O'zbek xalqining urf-odat va tutumlarida



iste'molda bo'ladigan bir qator so'zlar borki, ular adabiy tilga alohida fayz bag'ishlaydi va til sohibining nutqini madaniylashtirishga xizmat qiladi. Bu esa nutq madaniyatining konnotasiya bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydiki, buni interviyu diskurslar bilan aloqadorligini ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslikning rivoji nutq madaniyati fanining ham takomiliga turtki berganligini inkor etib bo'lmaydi. Nutq madaniyatida graduonimiya, gipe-giponomiya, partonomiyaning ham o'rni bor. Graduonimiyada so'zlarning muodilligiga yaqinlik, ya'ni darajalanish xususiyati birlamchi o'ringa ko'tarilib, nutqning serjilo qilishga xizmat qiladi. Agar masalaga sosiolingivistik yoki lingvokulitrologik nuqtai nazaridan e'tibor qilinib intervyu diskurslar bilan bog'liq holda ko'zdan kechirilsa, so'zlarning darajalanishi ana shu jarayonda alohida mavqe tutganligini kuzatish mumkin bo'ladi. Negaki nutq madaniyatining shakllanishi va uning ijrosida so'zlarni almashtirib, ularning darajalanish o'rniga qarab istifoda etish intervyu matnining ham mazmundor hamda ta'sirchan bo'lishiga sabab bo'ladi.Nutqning ijro etilishida unga ma'lum bir voqea-hodisa haqida ma'lumot berishdan tashqari, yana bir maqsad – tinglovchi ongiga va ruhiyatiga ta'sir etish vazifa qilib qo'yiladi. Bu nutq madaniyatining estetik aspekti sanaladi. Shuning uchun ham ta'sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi hamda to'g'rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, tinglovchiga yoki o'quvchiga ta'sir etishiga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan xususiyatlarda til omillari birinchi o'rinda tursa, ularning barchasidan foydalangan holda ta'sirchanlik keng doirada tildan tashqaridagi omillarni ham qamrab oladi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya'ni interviyu oluvchi auditoriyani hisobga olishi – ularni bilim darajasidan yoshigacha, hatto nutq so'zlanayotgan paytdagi kayfiyatgacha kuzatib turishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishini nazoratga olib borishi lozim bo'ladi. Malakali bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, etarli darajada



ma'lumotga ega bo'lmagan auditoriya oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi. Va butun diqqat-e'tibor ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'laligicha tinglovchilarga yetkazish vazifa qilib qo'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs / Teoriya metafori. – M.: Progress, 1990. – S. 5-32.

2. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti. – 1989, №6.-B.35-40.

3.Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. –Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B.141.

4. Jamolxonov H. Komlev N.G. Komponenti soderjatelinoy strukturi slova. – M: MGU, 1960. - S. 118.

5. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – T.: Ma'naviyat, 2004. – B.141.

6. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – B.29.

7. Mirtojiev M. Ko'rsatilgan asar.- B. 43.

8. Nikitin N.V. Osnovi lingvisticheskoy teorii znacheniya. –M.: Vissh.shk., 1988, s. 88.

9. Sobirov A. Ko'rsatilgan asar – B.141.

10. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: 2009. – B.109.

11.Sobirov A. Ko'rsatilgan monografiya. –B.140-144.

